



SUD-TERGOV JARAYONIDA QO‘LYOZMA MATNLARNI LINGVOKRIMANILISTIK TADQIQ QILISHNING O‘ZIGA XOS BOSQICHLARI

Jumanazar O‘rozov Norqizilovich
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘qituvchisi*

Turli ko‘rinishdagi konfliktli matnlarni lingvokriminalistik tadqiq qilish jarayoni o‘ziga xos bosqichlarni qamrab oladi, bu jarayon oddiy lingvistik tahlildan tamoman farq qiladi. Mavjud nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etilib, ekspert tomonidan umumlashmalar hosil qilinadi. Har qanday matn ham lingvokriminalistik tadqiq ob’ekti bo‘la olmaydi. konfliktli og‘zaki va yozma matnlar lingvokriminalistik tadqiq o‘tkazish uchun asos vazifasini bajara oladi. Og‘zaki ko‘rinishdagi matnlar, telefon yozishmalari, audio va video xabarlar, favqulodda qo‘ng‘iroqlar turli irqiy kamsitish, haqorat, obro‘sizlantirish, tashviqotlarga qaratilgan ommaviy murojaatnomalar bo‘lishi mumkin.

Yozma ko‘rinishdagi konfliktli matnlarning mazmunini juda keng va xilma-xildir. So‘nggi yillarda yozma matnlar qatoriga e-mail orqali yozilgan xatlar, turli murojaatlar, SMS-yozishmalar ham qo‘shildi. Bu esa, o‘z navbatida, tahlilning yangicha usullari, sinchkovlikni talab etadigan jarayonga aylandi. Yozma matnlar mohiyatida bir-birini taqazo etuvchi belgilar uchraydi. Ekspert ana shu belgilarni sinchiklab kuzatishi, harakat dinamikasini tahlil etishi va umumlashtirishi lozim¹.

Tergov va surishtiruv jarayonida qo‘lyozma matnlarning lingvokriminalistik ekspertizasidan o‘tkazishda muallifning psixologik holati, yoshi, kasb turi kabi turli ma‘lumotlarni aniqlash imkoniyati birmuncha yuqori. Qo‘lyozma matnlar kriminalistik tadqiqotida yozma nutqning umumiy va maxsus belgilari ajralib turadi. Umumiy belgilarga nutq muallifining individuallik xususiyatlari ajralib turadi. U esa matn muallifining leksik, grammatik, uslubiy imkoniyatlarini aniqlash va baholash imkoniyatini yuzaga keltiradi. Maxsus belgilarga noadabiy birliklar, turli shevaga oid so‘zlar, birikmalar, ortiqcha ifodalar, iboralarni noo‘rin ishlatish, so‘zlar takrori, leksik so‘z boyligi yetishmasligi kabi so‘z va iboralarda namoyon bo‘ladi. Bu esa ekspertga muallif haqida umumiy jihatlarni ochishga yordam beradi.

Lingvokriminalistik ekspertizaning sifatli o‘tkazilishiga uning tadqiq bosqichlari juda muhim o‘rin tutadi. Bu masalada ilmiy adabiyotlarda turlicha qarashlar mavjud. Jumladan, A.N.Baranov matnlarni lingvokriminalistik tadqiq etishda quyidagi tadqiq bosqichlarini sanab o‘tadi:

- qo‘lyozma matnning dinamik harakatini aniqlash bosqichi (harakatning yo‘nalganligi, belgilarning individualligi);
- fonetik (shu jumladan, fonologik va fonoskopik);

¹ Musulmonova K. Lingvistik ekspertiza tahlil bosqichlari mazmuni//Жамият ва инновациялар - Общество и инновация - Society and innovations. Т.: 2021.



– morfologik (aksariyat hollarda savdo belgilarini tahlil qilishda samarali deb baholanadi);

– sintaktik, diskursiv tahlil (ogʻzaki va kommunikativ vaziyatning ogʻzaki boʻlmagan tarkibiy qismlari tahlil qilinadi)².

Bizning fikrimizcha, keltirilgan tadqiq bosqichlarida biroz mavhumlik koʻzga tashlanishi mumkin. Bu oʻrinda shuni alohida taʼkidlash joizki, bir tadqiq bosqichi bilan ikkinchi tadqiq bosqichi bir-birini, albatta, taqazo etib boradi. Tadqiq bosqichlarining barchasi nutqda qoʻllanuvchi soʻzlar tahliliga diqqat qilinadi. Lingvokriminalistik tadqiq bosqichlari ketma-ketlikda amalga oshirilishi lozim boʻlgan jarayon hisoblanadi. Bir bosqich ikkinchi bosqichni taqazo etishi kerak. Shu nuqtai nazardan lingvokriminalistik tadqiq oʻtkazishda ularni ikki asosiy turga boʻlishimiz mumkin:

- 1) umumiy tadqiq bosqichlari;
- 2) maxsus tadqiq bosqichlari.

Umumiy tadqiq bosqichlari lingvokriminalistik tadqiqning barcha turlari uchun ahamiyatli boʻlgan, takrorlanuvchi jarayon boʻlib xizmat qiladi. Maxsus bosqichlar esa har bir konfliktli matnning kriminal xarakterli xususiyatlari, holati oʻrtaga qoʻyilgan muammo asosida yuzaga keladi. Bizning fikrimizcha, lingvokriminalistik tadqiqning umumiy tadqiq bosqichlari quyidagicha tartibda ifodalashimiz mumkin:

1-bosqich	Taqdim etilgan konfliktli matnning umumiy xarakteristikasi, texnik tahlili (holati, ishlatilgan texnik vositalari)
2-bosqich	konfliktli matnning fonetik-fonologik, orfoepik, orfografik tahlili
3-bosqich	konfliktli matnda qoʻllanilgan adabiy va noadabiy leksik birliklar tahlili
4-bosqich	konfliktli matnda qoʻllanilgan morfemik-morfologik birliklar tahlili
5-bosqich	konfliktli matnning sintaktik qurilishi
6-bosqich	harf dinamikasi boʻyicha tahlil (agar matn qoʻlyozma boʻlsa)

Konfliktli matnni tahlil qilishda mutaxassis-tilshunoslar lugʻat va grammatik til birliklari hamda ularning asosiy maʼnolarini belgilaydigan muhim bir qoidani hisobga olishi kerak. Bunga birinchi navbatda quyidagilar sabab boʻlishi mumkin:

1. Matndagi soʻzning maʼnosi faqat lugʻatdagi soʻzga berilgan maʼnonigina emas, balki berilgan matndagi soʻz anglatayotgan obʼekt yoki voqelik hodisasi haqidagi maʼlumotlarni ham oʻz ichiga olgan boʻlishi mumkin. Bunda maʼlum bir soʻz va uning maʼlum bir madaniyatga xos maʼnosi bilan bogʻliq boʻlgan gʻoyalar, baholashlar hamda assotsiatsiyalarni ham hisobga olishi zarur;

2. Gapning maʼnosi soʻz, grammatik morfemalar, sintaktik va intonatsion konstruksiyalar maʼnolarining yigʻindisigina emas, balki gapning kommunikativ oʻzaro taʼsir tarkibida bajaradigan vazifasidir;

² Баранов А.Н. Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика: учеб. пособие [Текст]. М.: Флинта: Наука, 2011.С. 51-56



3. Matn ma'nosi uni tashkil etuvchi jumlar ma'nolarining oddiy yig'indisi emas, chunki u izchil matndagi alohida gaplar, iboralar va so'zlar o'rtasida yuzaga keladigan semantik munosabatlarni (sabab, shartlilik, bir vaqtdalik, ketma-ketlik, bog'lovchilar, so'z birikmalari) ham o'z ichiga olgan bo'lishi mumkin;

4. Ma'no matnda aniq va yashirin shaklda bo'lishi mumkin.

Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash kerakki, yuqorida aytilganlarning barchasini hisobga olgan holda, o'rganilayotgan matnda ma'lum bir ma'noning mavjudligi yoki yo'qligi aniqlanganda, ekspert ushbu matnda muhokama qilinadigan vaziyat haqida barcha zarur faktik ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak.

Bunda qo'lyozma matnning mazmunini tahlil qilish bilan uning muallifini alohida guruhga mansubligi masalasini hal qilib olmog'i zarur bo'ladi. Masalan, hujjatdagi matn qaysi millat tilida yozilganligiga qarab muallifga nisbatan bu til ona tili hisoblanadimi yoki boshqa xorij til ekanligini aniqlash mumkin. Shundan kelib chiqib, matn muallifini aniqlash bo'yicha lingvokriminalistik tadqiq jarayoni ikki bosqichdan iborat bo'lib, ular quyidagilardan tashkil topgan:

1. ekspertizaga yuborilgan material bilan tanishib chiqib, qaror (ajrim)da belgilangan tadqiqot vazifasi, tekshiruv obyektlarining soni, sifati yetarli va yaroqli ekanligi aniqlanadi;

2. tekshiriluvchi va namuna ob'ektlar har biri alohida ko'zdan kechirilib tahlil qilinadi, ulardagi nutq xususiyatiga tegishli bo'lgan sifat belgilari: leksika, sintaksis, jumla tuzish va fikrni yozma shakllantirishning o'ziga xosligi aniqlanadi.

Qo'lyozma matnda mualliflar soni qancha bo'lsa, har birining xat namunalari alohida-alohida guruhga ajratilib, alohida qiyoslanib tadqiq etiladi. Solishtirib tekshirish natijasida ma'lum belgi xususiyatlarining o'xshashligi yoki qarama-qarshilik holatlari asosida tegishli xulosalarning asoslari shakllanadi. Tekshirilayotgan muallifning idifikatsiyasi yoki uni ma'lum bir guruhga oidligi (ma'lumoti, saviyasining darajasi, mutaxassisligi va boshqa xususiyatlari)ga ko'ra baholanib xulosa qilinadi.

Shundan kelib chiqib, bugungi rivojlanayotgan axborot texnologiyalari olamida qo'lyozma matnning turli qismlarini tahlil qilish orqali matn muallifini aniqlash muammosi tobora ortib bormoqda. Hujjatni o'rganish uchun unga aloqador shaxslar haqida to'liq va ishonchli ma'lumotlar va uning yaratilishi, kompleks yondashuvdan foydalanish zarur. Qo'lda yozilgan hujjat, shaxs haqida ma'lumotlarni aniqlashda grafologiyaning o'rni alohidadir.

Qo'lyozma matnlar ekspertizasida, har bir element alohida rol o'ynaydi. Bu jarayonda nafaqat lingvistik bilimlarni amaliyotga tatbiq etish lozim, balki yozuv quroli va shart-sharoiti kabi masalalarga oydinlik kiritish uchun fizika yoki kimyoga oid bilimlarni ham qo'llash lozim. Bu esa o'z navbatida, matn muallifini aniqlashga yordam beradi. Qo'lyozma matnlar yozilishida ikki asosiy omil muhim rol o'ynaydi. Biri inson omili bo'lsa, ikkinchisi tashqi omil sanaladi. Inson omili deganda matn kim tomonidan yozilganligi, kim tomonidan buyurtma berilganligi, muallifning ijtimoiy-ruhiy holati kabilar nazarda tutilsa, tashqi omillar atrof-muhit, iqlim sharoiti kabilarni ifodalashi mumkin. Umumiy qilib aytadigan bo'lsak, matn yozilishi jarayoniga insonning bilim darajasi, atrof-muhit, ijtimoiy munosabatar, psixologik va kognitiv qobiliyatlar, jismoniy va ruhiy holat (charchoq,



uyqusizlik, asabiylik, hayajon, shoshqaloqlik) o'z ta'sirini ko'rsatadi³. Shu o'rinda aytish kerakki, har bir shaxs individual xususiyatga ega va uning yozuvi orqali yoshi, jinsi, pragmatik holati, jahldor, jismoniy holati kabilar ham muhim o'rin tutadi.

Yozma matnlarni lingvokriminalistik ekspertiza qilish jarayonida sotsiolingvistik jihatdan yondashish ham alohida ahamiyat kasb yetadi. Bir ijtimoiy guruhga mansub kishilarda takrorlanuvchi elementlar ko'p bo'ladi. Bu elementlar leksik qatlamda, sintaktik konstruksiyalarda namoyon bo'ladi.

Bu matn qismlaridagi harflarning topografik xususiyatlarini aniqlashdan boshlanadi. Topografik xususiyatlarga quyidagilarni keltirib o'tishimiz mumkin:

- satr hajmi va so'zlar oralig'i;
- yozuv dinamikasi: gorizontol, ko'tariluvchi, pasayuvchi, to'g'ri chiziqli, qavariq, pog'onali;
- tinish belgilari va tirening joylashuvi;
- harf elementlarining qo'llanilishi;
- harflar o'lchami (katta, o'rta, kichik va o'ta kichik shrift yozilganligi).

Satr hajmi va so'zlar oralig'i ham muallif haqida muhim malumot beradi. Odatda, tezlikda yozilgan matnlarda satr hajmi va so'zlar oralig'i anchayin tig'iz joylashgan bo'ladi. Bu holat kishining markaziy nerv sistemasi bilan bog'liq ravishda ham amalga oshadi. Jahldor, g'azabi tez odamlar yozuvda so'zlar oralig'i juda qisqa va tig'iz bo'ladi. Kishining bilim darajasi, ijtimoiy muhit va tashqi omillar natijasida muayyan yozuv dinamikasi paydo bo'ladi.

Bundan tashqari, L.Mixelning fikricha, lingvokriminalistik tadqiq jarayonida qo'lyozma matnlarning umumiy xususiyatlarini aniqlashda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish lozim:

1. yozuv tezligi, harakatlarning o'ziga xosligi va ularni muvofiqlashtirish orqali muallifning yozuvdan foydalanish qobiliyatini baholash;
2. yozuvning sodda yoki murakkab elementlardan tuzilganligiga e'tibor qaratish. Ayrim yozuvlarda elementlar muallif tomonidan murakkablashtiriladi. Biroq har qanday soxta elementlar aralashtirilgan matnda ham yozuv muallifining muayyan jihatini ko'rsatib beruvchi tabiiy belgilar saqlanib qoladi;
3. matnda harakat yo'nalishining umumiy shaklining to'g'ri, yumaloq, burchakli, yoysimon shaklda ekanligiga e'tibor qaratish;
4. asosiy harakatlarning yo'nalish nuqtasini aniqlash. Ayrimlarda o'ng tarafga, boshqalarda chap tarafga, yoki yuqoriga harakatlangan yozuv shakli mavjud bo'ladi;
5. yozuv hajmi katta (5 mm dan ortiq, o'rtacha - 2-5 mm, kichik - 2 mm dan kam) bosim (kuchli, o'rta va kuchsiz);
6. harakatlarning nisbati, harakatlarning lokalizatsiyasi (harakat qayerdan boshlanib, qayerda tugashi, bosim kuchi va harakat tezligi);
7. so'zlarning chastotasi, bo'shliqning mavjudligi⁴.

³ Musulmonova K. Lingvistik ekspertiza tahlil bosqichlari mazmuni//Жамият ва инновациялар - Общество и инновации - Society and innovations. Т.: 2021. В. 229



Bizning fikrimizcha, qo'lyozmaning umumiy va alohida belgilarini tahlil qilish orqali qo'lyozma ijrochisining individual xususiyatlarini aniqlash mumkin.

Tadqiq etilayotgan hujjat jinoyat ishini ochish uchun muhim vosita, ya'ni jinoyat sodir etilgan obyekt haqida ma'lumot berishi kerak (masalan, tuhmat mazmunidagi yozuv yoki terroristik harakatni sodir etganligi to'g'risida yolg'on xabar berilgan anonim yozuv); jinoiy hujumlar bilan bog'liq bo'lgan narsalar (masalan, muhim moliyaviy hujjatlar); jinoyatni ochish va jinoiy ishning holatini aniqlash uchun vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan boshqa hujjatlar (masalan, buxgalteriya hujjatlari yordamida davlat byujetiga soliqlarni to'lamaganlik faktlari). Grafologik ekspertiza natijalari jinoiy ishni ochib berishda va jinoyatchining shaxsiyatini aniqlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, hujjat va qo'lyozma materiallarini o'rganishda quyidagilarga e'tibor qaratish kerak:

1. noyob qog'oz turi yoki yozuv vositasi ishlatilganmi;
2. qog'oz varag'ining ajratuvchi chizig'ining konfiguratsiyasi qanday? (kesilgan yoki teshilmaganligi);
3. hujjatda boshqalarning jismoniy yoki yo'q qilingan izlari;
4. hujjatlarning mustaqil qismlarining qandayligi;
5. so'zlarni ta'kidlash, alohida so'zlarni ajratib ko'rsatish, qo'shish usullari qo'shimchalar, so'zlardagi xatolarni tuzatish.

Yuqorida ko'rsatilgan elementlarning barchasi lingvokriminalistikaning dastlabki jarayoni sanaladi. Bu jarayonda ekspert matn haqida tasavvurga ega bo'ladi. Matn xususida to'plangan ma'lumotlar asosida keyingi jarayonda yig'ilgan ma'lumotlar qiyoslanadi.

Yozish mexanizmining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish qo'lyozmada sodir bo'ladigan o'zgarishlarning kelib chiqishi, hajmi va xarakterini o'rganishda, uni aniq yozuvchilar tomonidan ongli ravishda o'zgartirish imkoniyatini baholash imkonini beradi. Idrok, xotira, ayniqsa, boshqa shaxsning qo'l yozuvi yoki imzosini taqlid qilish kabi holatlar bilan bevosita bog'liq.

Mutaxassislarining fikriga ko'ra, yozuv orqali "shaxsning rivojlanish darajasi, uning madaniyati, ba'zi bir kasbiy mahorat, moyillik, irodaviy fazilatlar, hissiy ta'sirchanligi, ba'zan hatto ijodkorlik, shuningdek, ruhiy me'yordan chetga chiqishi aniqlanadi. Ular qonunga bo'ysunuvchi fuqarolar va jinoyatchilarning qo'l yozuvlarini taqqoslashni shaxsning jinoiy yo'nalishini aniqlashda asosiy vosita deb bilishi bejizga emas"⁵. XIX asr nemis tadqiqotchisi I.H.Groman esa qo'lyozma matnlari orqali "bo'yni, yoshni, ovozni, ko'z va sochlarning rangini va hattoki yonoqlarning qizarishini ham aniqlash mumkin" degan fikrni ilgari suradi⁶.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, qo'lyozma matnlari bilan har xil deviant xulq-atvorni aniqlash mumkin, unga rus tadqiqotchisi V.N.Obrazsov: "Qotillarning qo'lyozmasi bosim zarbining kuchliligi bilan ieroglif yozuviga o'xshash bo'lishi mumkin - deb ta'kidlagan. - U

⁴ Михель Л. Сравнительное исследование почерков / Пер. Л.А. Филимоновой. Переводч. Группа КЮМО. М., 1982.

⁵ Наджимов О. Как узнать характер человека по его подписи: учебное пособие. М., 2001

⁶ Бринев К. И. Теоретическая лингвистика и судебная лингвистическая экспертиза : монография / К. И. Бринев ; под редакцией Н. Д. Голева. Барнаул : АлтГПА, 2009. С. 32.



qat’iylik, ishonchni kuchaytirganda, hayajon va yozish tezligini egallaydi, chiziqlar uzunlikka yopishadi, soʻzlar qoʻshilmaydi. Harflar kerak boʻlgandan ancha kattaroq, baʼzan keraksiz darajada ulkan hajmga ega boʻladi. Chiziqlar yoʻnalishi bir tartibda boʻlmaydi”⁷.

Umuman, mazkur tadqiqot ishi davomida lingvokriminalistik tadqiq belgilarini alohida oʻrganib chiqib, qoʻlyozma matnni lingvokriminalistik tadqiq qilishning umumiy bosqichlarini quyidagi jadvali koʻrinishda ifodalashga harakat qildik:

Matn bilan tanishish bosqichi	Yozuv materilallarini tahlil qilish (yozuv qogʻozi, siyoh, ruchkani oʻrganish va tekshiruvdan oʻtkazish)
	Qoʻlyozma matnlarda belgilar dinamikasi (harfning ogʻish burchagi, bosimi, harakat liniyasi)
	Qoʻlyozma matnlarda jismoniy va uni yoʻq qilishga oid izlar
Matn mazmuni ekspertiza bosqichi	Matndagi qasddan qilingan oʻzgarishlarni aniqlash (shaxs emotsiyalarining aralashuvi, dialektizm elementlarining qasddan qoʻllanilishi)
	Qoʻlyozma matnda boshqalar yozuviga taqlid elementlari bor yoki yoʻqligini aniqlash Qoʻlyozmaning ayol yoki erkak yozuvi ekanligini aniqlash
	Matnda qasddan oʻzgartirilgan nutq birliklari mavjudligini aniqlash
Matnning xususiyatlarini bosqichi	leksik aniqlash Konfliktli matndagi lekcik birliklar qoʻllanilish chastotasi hamda lekcik semantik jihatlarini tahlil qilish
	Konfliktli matnda qoʻllangan soʻzlarning morfologik xoslanishi (morfologik birliklar chastotasi)
	Matnning sintaktik strukturasi. Stilistik xususiyatlarini tahlil qilish

Tadqiq bosqichlarining xususiy xarakter kasb etishi har bir konfliktli matnda oʻziga xos jihatlar mavjudligi va muammoning qoʻyilishi bilan bogʻliq holda yuzaga keladi. Turli tipdagi konfliktli matnlarda olib boriladigan lingvokriminalistik tadqiqning umumiy tahlil bosqichi bilan bir qatorda xususiy tahlil bosqichlari ham mavjud. Xususiy tahlil bosqichlari esa lingvokriminalistik tadqiqning barcha turlari uchun alohidalik kasb etadi.

Mazkur tadqiqot ishi davomida jinoyatni surishtiruv-tergov ishlariga oid koʻplab hujjatlarini oʻrganib chiqib, shunday xulosa keldikki, hozirgi kunda qoʻlyozma matnlari vositasida matn muallifiga doir quyidagi maʼlumotlarni aniqlash kabi masalalar zamonaviy tilshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biri sifatida eʼtirof etilmoqda:

1. qoʻlyozma matnidan muallifining yoshini aniqlash;
2. qoʻlyozma matnidan muallifining jinsini aniqlash;
3. qoʻlyozma matnidan muallifining qaysi hududga mansubligini aniqlash;

⁷Лесовская Т.В. Особенности письма больных шизофренией: Автореф. дисс. ... канд. медиц. наук. М., 1977.



4. qo‘lyozma matnidan muallifining kasbi va xarakter xususiyatlarini aniqlash.

Umuman olganda, lingvokriminalistikaning tadqiq bosqichlari va uni to‘g‘ri amalga oshirish jarayonning izchil va samarali olib borilishiga yordam beradi. Avvalo barcha tadqiq turlari uchun umumiy tahlil bosqichlari amal qiladi. Har bir tadqiq turidagi matnning xarakterli xususiyati, konfliktli vaziyatni baholashni inobatga olgan holda xususiy tahlil bosqichlari amalga oshiriladi. Bu jarayon birmuncha qiyin va ekspertdan bilim va malaka, tayyorgalik va sinchkovlikni talab yetadi. Ekspert har bir matn qismini diqqat markaziga qo‘yishi va ular orasidan asosiy belgilarni ajratib olishi lozim. Bu anonim xatlarda hujjat muallifi tomon ekspertlarni yaqinlashtirishga yordam beradi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Баранов А.Н. Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика: учеб. пособие [Текст]. М.: Флинта: Наука, 2011.С. 51-56
2. Бринев К. И. Теоретическая лингвистика и судебная лингвистическая экспертиза : монография / К. И. Бринев ; под редакцией Н. Д. Голева. Барнаул : АлтГПА, 2009. С. 32.
3. Лесовская Т.В. Особенности письма больных шизофренией: Автореф. дисс. ... канд. медиц. наук. М., 1977.
4. Михель Л. Сравнительное исследование почерков / Пер. Л.А. Филимоновой. Переводч. Группа КЮМО. М., 1982.
5. Musulmonova K. Lingvistik ekspertiza tahlil bosqichlari mazmuni//Жамият ва инновациялар - Общество и инновация - Society and innovations. Т.: 2021.
6. Наджимов О. Как узнать характер человека по его подписи: учебное пособие. М., 2001